

O‘QUVCHILARNI ILMIY TAHLILGA YO‘NALTIRISH USULLARI

(O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” asari misolida)

B. Abdurahmonova,
QDPI dotsenti

O. Abdurahmonova,
QDPI, katta o‘q

Annotatsiya:

Mazkur maqolada o‘quvchilardagi ilmiy tahlil bo‘yicha olgan bilimlarini adabiy ta‘lim jarayonida takomillashtirish masalasi yoritilgan

Kalit so‘z: Tahlil, badiiy matn, ekspozitsiya, syujet, mustaqil fikr

Bugun kunda ta‘lim jarayonida tub burilishlar, ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Yangicha pedagogik tafakkur, o‘qish va o‘rgatishga bo‘lgan munosabatlarning yuksalishi, ta‘lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarining kirib kelishi, noan‘anaviy, innovasion, interfaol metod va usullardan, pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘lamining kengayib borayotgani, avvalo, o‘qituvchilardan o‘z ustida ko‘proq izlanish, o‘rganishni; bilimlarini muttasil oshirib borish zaruratini; yangi axborot vositalari, kompyuter texnologiyasini mukammal o‘rganishni; xorijiy tillarni o‘zlashtirib, dars jaryonida fanlararo, ta‘lim jarayonlariaro aloqani –integrasiyani takomillashtirishni davriy zarurat sifatida taqozo etmoqda. Bu narsa adabiy ta‘lim jarayoniga, xususan, O‘tkir Hoshimov asarlarini o‘rganishga ham o‘zining ta‘sirini ko‘rsatadi.

O‘tkir Hoshimovning ijodi, xususan, “Bahor qaytmaydi” qissasi barcha poetik unsurlari bilan mukammal matnni tashkil etadi. U haqida adabiyotshunos Sa‘dulla Mirzaev “O‘tkir Hoshimov – ko‘p qirrali iste‘dod sohibi. Uning hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti xazinasiga qo‘shgan ulushi katta. Adib asarlari mazmun va shakl jihatidan go‘zal, ularning badiiy – estetik ahamiyati beqiyos” – degan edi¹. Yozuvchi uzoq davrlik voqealarni, ko‘plab insoniy taqdirnlarni bosh qahramonning bir necha soatlik kechinmalari ichiga joylashtiradi. Muallif voqealarga

¹ S. Mirzaev XX asr y‘zbek adabiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2005-yil. 408-bet.



aralashmaydi, muxtasargina so‘z boshidan keyin u ko‘rinmaydi, so‘zlash ixtiyorini to‘ig‘icha qahramonlarning o‘zlariga beradi. Qahramonlar esa o‘z boshlaridan o‘tganlarini o‘zlari so‘zlab beradilar. Asar voqealarini qahramon tilidan hikoya qilinishini kitobxon asar strukturasi orqali anglab yetadi. O‘qituvchi asar tahliliga kirishar ekan, avvalo, o‘quvchilarning badiiy asardagi shakl va mazmun munosabati borasidagi bilimlarini ularning yodlariga solishi zarur. Chunki maktab adabiy ta‘limidan keyin ma‘lum bir muddat kasb-hunar maktablariga kelgan o‘quvchilarda adabiyot fanidan olgan saboqlarida uzilish bo‘ladi. Ana shu bo‘shliqni o‘qituvchi yodidan chiqarmasligi lozim. O‘quvchilarning adabiy-nazariy tushunchalar haqidagi bilimlarini yo‘naltiruvchi savollar orqali aniqlab olgandan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini asardagi quyidagi parcha tasviriga qaratadi: Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo‘ynidan jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og‘ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlanadi. Havoga elpig‘ichday qat-qat bulutlar chiqdi. Quyoshning iliq, tansiq nurlari odamlarga xush yoqadigan bo‘lib qoldi. Havoda ananas isi aralash yong‘oq xazonlarining o‘kir hidi gurkiradi. Yoz bo‘yi meva tugish dardida yashnagan bog‘lar, shodon shovullagan terakzorlar hayotning mangu, beshafqat haqiqati oldida o‘ychan, g‘amgin bosh egdi. Chor-atrof yaproqlarining mungli shivir-shiviriga to‘ldi.

Sumbula tug‘di. Qishloqni har qanday o‘rab oqayotgan anhor birdan tiniqlashdi. Telba to‘lqinlar endi jilovlanib, yuvosh bo‘lib qoldi.

Odamlar qilichini ko‘tarib kelayotgan qishdan cho‘chiganday shosha-pisha harakatga tushdilar. Kimdir chorbog‘ida o‘tin arraladi, kimdir qo‘shnisining tom suvog‘iga hasharga chiqa boshladi.

Hamma yagona bir tashvish bilan, kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo‘ldi.

Faqat bitta hovlida – qishloq chekkasida, shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi yolg‘iz o‘z tashvishi bilan band edi². Mazkur parcha darslikdan o‘qib berilishi ham mumkin yoki barcha o‘quvchilarga birday ta‘sir qilishi uchun sinfda mavjud bo‘lsa proektor orqali matnni ko‘rsatib, sinfdagi a‘lochi o‘quvchilardan biriga o‘qitilishi ham, mazkur asarning audio shaklini topib eshittirilishi ham mumkin. Keltirilgan parcha asarning mazmuniy jihatiga tegishlimi yoki shakliy qismiga aloqadormi? savolini berish

² O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Qissa. Yangi asr avlodi nashriyoti. T. 2019. B-4.



orqali o'quvchilarning badiiy asardagi shakl va mazmun borsidagi bilimlari qisman bo'lsada tekshirib olinadi. So'ngra o'qituvchi adib tabiat tasvirini berishda qanday badiiy tasvir vositalaridan foydalanganligini so'rashi ham, tabiat tasvirining asar qahramonlari taqdiriga qanday aloqasi borligini so'rashi ham yoki aynan ana shu peyzaj tasviridan so'ng qahramonlar o'z taqdirilarini hikoya qilishlarini misollar keltirish bilan aytishlarini talab qilishi ham mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarni asar tahliliga olib kirar ekan, ularni adabiy-nazariy tushunchalar borasidagi bilimlariga tayanadi. O'qituvchining asar ekspozitsiyasi nima? degan savoliga bolalar quyidagicha javob berishi mumkin: Asar ekspozitsiyasi asar qahramoni va u bilan bog'liq voqealarini qaysi sharoitda boshlanayotgani haqida o'quvchiga ilk ma'lumotni beruvchi syujetning tarkibiy qismi bo'lib, u syujet va konfliktning boshlanishidan avval keladigan muqaddima. Ekspozitsiya asarning bir necha o'rinlarida uchrashi mumkin. Ekspozitsiya asar qahramonining kelgusi hayoti haqida ham bayon berishi mumkin³, deb javob beradi. O'quvchining javobini to'g'riligiga qarab, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar berilishi mumkin. Jumladan, topshiriqlardan biri shunday bo'lishi mumkin: Asar matnidan ekspozitsiyasini topib o'qib yoki o'z so'zlaringiz bilan gapirib bering. O'quvchilardan biri asardan Alimardonning tush ko'rganligi haqidagi quyidagi parchani keltirib, ekspozitsiyasi tush tasviri orqali berilganiga misol keltiradi: U past-baland qoyalar ora sidan ot choptirib borayotganmish. Ot eldek ucharmish, tog'u-toshlar chirpirak bo'lib orqada qolib ketarmish. Birdan hammayoqni zulmat qoplabdi. Ot allanimaga qattiq qoqilibdi-da qopqorong'i jarlikka munkin ketibdi. U otni bo'ynidan mahkam quchoqlab olganicha shuvillab pastga tushib ketayotganmishu erga hech etmashmish. Nafasi bo'g'ziga tiqilib, dahshatdan oyoq-qo'llari toshday qotib qolganmish...

- A-a-a!

Alimardon o'z ovoizidan o'zi cho'chib uyg'onib ketdi. Anglaganicha qaerda yotganini bilolmay, ko'zlarini katta-katta ochganicha shiftga tikilib qoldi. A'zoyi badani o't bo'lib yonar, peshonasini muzdek ter bosgan, bir tutam sochi ter aralash qoshlariga yopishib qolgan edi⁴. Asardagi bu ekspozitsiya Alimardonning hayotida kelgusida qandaydir bir noxush voqea yuz berishini anglatadi. Badiiy asarni

³ Quronov D va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademnashr. T. 2010

⁴ O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Qissa. Yangi asr avlodi nashriyoti. T.: 2019.B-4-5.



lingvistik tahlil qilish ham keng tarqalgan metodlardan biridir. Aslida barcha adabiyotshunoslik metodlari badiiy asarni tekshirish jarayonida asarning tiliga, nutqqa e'tibor beradi. Lingvistik vositalar yordamida badiiy asarning g'oyaviy-emotsional qirralarini ko'rsatish mumkin. Bunda matndagi badiiy so'zga, takrorlarga, ya'ni so'zlarning paydo bo'lishiga, qo'llanish doirasiga, badiiy tasvir vositalariga e'tibor qaratiladi.

Badiiy adabiyot til asosiga qurilgan. Badiiy asarni lingvistik jihatdan tahlil qilganda muallif obrazi, roviy, hikoyachi, lirik qahramon, nutq tiplari, matn ritmi kabi unsurlarga diqqat qilinadi. Lingvistik tahlilda nutqiy hodisalarning g'oya va mazmuni yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vositalar sifatida qaralishi muhimdir. Bunday tadqiq natijasida ijodkor shaxsiyatining individual uslubi aniqlanishi mumkin. Badiiy matndagi ohang - ritmni yuzaga keltirishda, bu orqali mazmuni ifodalashda unli va undosh tovushlarning, fonologik konstruksiyalarning ahamiyati katta. Tovushlar xususiyatlari turlicha, ularda kenglik, qattqlik, yumshoqlik, nafislik va qo'pollik kabilar bor. Jumladan, o'unlisida bepoyonlik, kenglik, ulug'vorlik bor, i'tovushida nazokat, ingichkalik bor. Alimardon nutqidagi A..A...A'tovushida qo'rquv, vahima borligini sezish qiyin emasligini o'quvchi aytib o'tadi. Bundan tashqari, tovushlarning ramziy ma'nalari, ranglari ham bo'lishi olimlar tomonidan aytib o'tilgan. Umuman olganda, badiiy asar tili turlicha va yangicha yonlashuvlar asosida o'rganiladigan serqirra ob'ekt sanaladi.

Ikkinchi bir o'quvchi asardagi ekspozitsiyani quyidagi peyzaj tasviri bilan bog'liq holda tasvirlanganligiga misol keltiradi:

Ertasiga kechqurun Qonqus yoqasida-Alimardonning eng baxtiyor, eng pokiza damlari -bolalik yillari kechgan o'sha anhor yoqasida jimgina mudrab yotgan go'ristonda yana bir qabr mungli do'ppaydi, hassakashlar go'ristondan chiqib ketayotganida yangi mozorning yomg'irdan ivigan mayin tuprog'i ularning ortidan unsizgina javdirab qoldi. ...o'sha kuni kunbotar oldida havo ochilib ketdi. Ufqqa quyosh qon sanchratib yubordi. Anvar qabr ustida uzoq o'tirdi. Unsiz yig'ladi. Negadir shu oqshom oftob juda qiynalib botdi. Ufq etagida uzoq osilib turdi-da, oxiri umidi uzilganday sekin-sekin er ortiga cho'kib ketdi.

Yana bir necha kundan keyin yayrab-yashnab bahor keldi. Go'riston yonidan keskin burilib oqayotgan Qonqus toshqin suvlarini bag'riga sig'dirolmay shovullay



boshladi. Lojuvard osmon makoniga qaytayotgan turnalarning qiyqirig'i bilan to'lib ketdi.

Qabrison chekkasidagi qator-qator teraklar yaproq yozib oy nurida hazin shivirladi. Tong otishi bilan juft-juft bo'lib olgan chumchuqlar bezovta chirqillab iniga xas-xashak tashib qoldi. Osmon-u falakda yakka-yolg'iz to'rg'ay nola chekdi.

Saxiy ko'klam ko'p qatori Alimardonning qabrini ham chechaklarga burkadi. Maysalar orasida ochilgan bittagina qizg'aldoq tong shudringiga qadah tutdi. Ertandin to'kilib ketishi, o'zidan na bir muattar bo'y, na meva qolishidan bexabar yal-yal yondi⁵. Keltirilgan parcha orqali yozuvchi asar qahramonlaridan biri bo'lgan Alimardonning o'zidan hech qanday yaxshi nom qoldirmaganligiga ishora berilganligini, qahramon taqdiri tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlangani haqida bilganlarini aytadi. O'tkir Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissasini yaratishda syujet unsurlari: ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim kabilaridan mohirona foydalangan. Bu unsurlarni joylashtirishda yozuvchi birgina unsurdan foydalanibgina qolmay uning turlicha jihatlarini yaratadi va struktural metodni qo'llaydi. Ma'lumki, struktural metod syujet unsurlarini bir tizimga solib joylashtiradi. Shuningdek, yozuvchi asarda kompozision vositalardan ham mohirona foydalangan va ularni bir tizimga keltiradi.

Xulosa shuki, asarda tabiat tasviri bilan qahramonlar taqdiri bir yo'sinda ulanishini anglash orqali ham o'quvchilardagi ilmiy tahlil borasidagi bilimlar yanada mustahkamlanadi. Hosil qilingan ko'nikma malakaga aylanadi. O'quvchilarning o'zlarida mustaqil ravishda badiiy asarlarni tahlil qilish imkoniyati ortadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Qissa. Yangi asr avlodi nashriyoti. T.: 2019
2. Rasulov A. Ardoqli adib. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar. Kitob. 2001. «Sharq» nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi. T.: 2001
3. Sharafiddinov O. O'tkir Hoshimov. Adabiy portret. «XX asr o'zbek adabiyoti tarixi» darsligi. T.: 1999
4. Niyazmetova T.R. Adabiy ta'limda kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish G'G' Til va adabiyot ta'limida yangi pedagogik texnologiyalar. 1-qism. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. – B. 6-10
5. Niyozmetova R. O'zbek tili darslarida yangi o'zbek adabiyotini o'qitish masalalari. T.: 2010.

⁵ O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. Qissa. Yangi asr avlodi. T.: 2019. B-177-178

